

**QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA PARONIM SO'ZLARNING
QO'LLANILISHI**

Islomova Shahnoza Abdurahmonovna

Renessans ta'lim universiteti

Filologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Agrar tarmoq chet el bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikka chiqayotgan globallashuv davrida bu sohadagi paronimlik hodisasini ham tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Maqolada atiga 4 ta so‘zning paronimlik xususiyatini ko‘rinib chiqilgan va uning ma’nolari ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga tayangan holda tadqiq qilinga.

Kalit so‘zlar: agrar soha, lug‘at, paronimlik, talaffuzdosh, tadqiq qilish.

Prezidentimiz tomonidan 2020 -yil 20 - oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonining 5 - bandida o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlar asosida uzlucksiz ta‘limning barcha turlari uchun o‘quv lug‘atlarini yaratish choralarini ko‘rish vazifasi belgilab berilgan bo‘lib, mazkur lug‘at uning ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Agrar tarmoq chet el bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikka chiqayotgan globallashuv davrida bu sohadagi paronimlik hodisasini ham tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbek tili paronim so‘zlarining agrar soha doirasida tahlil qilish va lug‘atini shakllantirish quyidagi tizim va yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

— tabiiy tilni qayta ishslash (NLP)da; — avtomatik tarjima, nutq sintezatori va nutqni aniqlash dasturlarining lingvistik ta’mintlari uchun audioma'lumotlar bazasini yaratishda; lingvisfik ontologiya va kiberleksikografiyani yaratishda muhim qo‘llanma vazifasini bajaradi.

— xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitishda, bevosita matnlarni to‘g‘ri tarjimasini malga oshirishda;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- qishloq xo‘jaligi ta’limida talaffuzdosh (paronym) so‘zlar tavsifini o‘rganishda;
 - agrar soha ilmiy matnlardagi yozish jarayonida tarixiy, adabiy va hatto istorizm hamda arxaizmlarga aylangan talaffuzdosh so‘zlardan o‘rinli foydalanishda;
 - ilmiy tadqiqotlarda paronimlar etimologiyasini aniqlashda ularning manba tilini topish uchun;
 - tarjimon,suxandon, notiq va jurnalistlar nutqida talaffuzdosh so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi ko‘nikmasini shakllantirishda;
 - soha hodimlari nutqida paronimlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishiga erishish uchun;
- 6 tomlik ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi quyidagi so‘zlarning paronimlik xususiyatini ko‘rb chiqamiz.

Agrar soha termini sifatida	Boshqa ma’nolarda
ABZAL [<i>f. j'jj' yoki j' ja' - asbob, ishquroli</i>] Ot-ulovni minish yoki arava- ga qo‘sish uchun zarur boTadigan asboblar majmuyi. <i>-Mana bularni yamab qo ‘y, - deb jahl bilan oldimga uzil- ganyulangan bir to ‘da qayish, jazliq, yugan - ot abzallarini bir bigiz va bir nechta tikish bilan uloqtirdi.</i> G‘.G‘ulom, Tirilgan murda	AFZAL [<i>a. - eng fozil, eng fazilatli</i>] 1 (<i>asosan ch. k. bilan, ikki narsani bir-biriga chog‘ishtirishda</i>) Yaxshi, a’lo, ortiq. <i>Nomussiz yurmoqdan nomusli o ‘Imoq afzal.</i> Maqol. — <i>Sizning har bir so‘zingiz biz... uchun tilladan afzaldir.</i> Oybek, Navoiy

<p>ARIQ 1 Sun'iy ravishda hosil qilin- gan suv yo'li, o'zani va undagi suv. <i>Bir odam ariq qaziydi, ko 'p odam suv ichadi.</i> Maqol. <i>Otang mirob bo'lsa ham, ariqni tozalab suv ich.</i> Maqol.</p> <p>2 Ekin ekish va sug'orish uchun ekin maydonida tortilgan maxsus suv yo'li, jo'yak.</p>	<p>ORIQ Badaniga et bitmagan; oz- g'in, kamgo'sht. <i>Oriq odam. Oriq qo 'y. Oriq otga chang yuqar.</i> Maqol. — <i>Po 'stakda so 'Ijayib o 'tirgan oriq bola- ning nursiz ko 'zlari hali o 'rtadagi unda edi.</i> MJsmoiliy, Farg'ona t.o.</p> <p>Oriq yer O'simlikka kerakli oziq moddalari yetishmaydigan, kamhosil yer. <i>Xolboy mingyildan beri ustida mol boqib kelingan xirmontepadan nuql tuproqni keltirib, qaqshab yotgan oriq yerga solinishi kerakligini bilib oldi.</i> K.Yashin, Hamza.</p>
<p>OXUR [- otxona; og'il, oxur]</p> <p>Chorva mollari (qo'y, echki, sigir, ot)ga yem-xashak solib beriladigan moslama (idish). <i>Ot oxuri. Mol oxuri. — Tosh- temir quduqdan bir necha marta suv chiqarib, otlarni sug'ordi, oxurlarga beda soldi.</i> H.G'ulom, Feruza. <i>G'ulom- jon otxonaga kirib, to 'kilgan bedalarni oxurga terib soldi, qorong 'ida ham ko 'zları chaqnab turgan samanni peshonasidan silab, suyib qo 'ydi.</i> M.Is- moiliy, Farg'ona t.o. \Oqbo 'yin\ <i>Eshikni timdalab, ko'kragi bilan itarib ochdi. Dimog'iga go 'ng va shiptir hidi urildi. Burchakdag'i temir oxur yonida bog'liq turgan govmishga ko 'zi tushib, joyida qotdi.</i> N.Norqobilov, Oqbo'yin.</p>	<p>OXIR I \a. - keyingi, so'nggi; so'ng, nihoya] 1 Cho'ziq narsaning so'nggi chegarasi, eng oxirgi qismi, poyoni. <i>Yo 'Ining oxiri ko 'rinmaydi. — Nusratbekning uyi shu kimsasiz, sokin ko'chalardan birining oxirida - pax- tazor chegarasida joylashgan ekan.</i> S.Nurov, Maysalami ayoz urmaydi.</p> <p>OXIRII \f. jk\ _ otxona; og'il, oxur] s.t. Oxur.</p>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

<p>BAND I [f. - “bog‘lamoq”, “to‘s- moq”, “berkitmoq” fl. hoz. z. o‘zagi]</p> <p>4.Daraxtlar (olma, nok, gilos, uzum va sh.k.), poliz ekinlari (qovun, tarvuz, bodring, pomidor va boshqa o‘simliklar) mevasining daraxt novdasiga yoki palakka birikadigan ingichka qismi. <i>Gilos bandi. Uzum bandi.</i> — <i>O ‘shanda otning kallasiday keladigan chim to‘rlama shakarpalakni bandidan ushlab, tortib yuborsam, qars yorilib ketsa bo‘ ladimi!</i> S.Anorboyev, Hamsuhbatlar.</p>	<p>BANT \nem. Band - tasma, lenta; tugun] Kapalaknusxa qilib bog‘lash yoki shu tarzda bogTangan lenta, jiyak va b. <i>Bu san'at asarlari atirgullar, ajdarholar, qush qanotlari, bantlarni aks ettiruvchi gulli naqshlar bilan bezatilardi.</i> “Fan va turmush”.</p>
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Maqlolada atiga 4 ta so‘zning paronimlik xususiyatini ko‘rinib chiqildi .Shundan **ORIQ** so‘zi **ARIQ** so‘zi bilan paronimlik xususiyatini ko‘rsatishi bilan birligida,*oriq yer* ko‘chma ma’noda ham ishlatilishi ,**OXIR - OXUR** paronym juftligidagi **OXIR** so‘zi *oxur* ma’nosida so‘zlashuv tilida ishlatilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.M.Abjalova “O‘zbek tilidagi paronym so‘zlar lug‘ati “ Termiz 2022
2. 6 tomlik ”O‘zbek tilining izohli lug‘ati”G‘.G‘ulom 2023